

## **Bolalar nutq o‘stirishda so‘zlashuv nutqining ahamiyati**

Usmonova Umida,

A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi,

[usmonova2104@gmail.com](mailto:usmonova2104@gmail.com)

+998900252104

**Annotatsiya:** Maqolada so‘zlashuv uslubi o‘ziga xos, leksik, stilistik xususiyatlari, ushbu so‘zlashuv nutqi sintaksisi, so‘zlashuv nutqi leksikasi borasida maxsus ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilganligi va kelgusida qilinishi kerak bo‘lgan vazifalar haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** uslub, leksik xususiyat, stilistik xususiyat, so‘zlashuv nutqi, monolog, dialog.

**Аннотация:** В статье рассматриваются специфические, лексические, стилистические особенности речевого стиля, синтаксис этой речи, конкретные исследовательские работы по лексике речи, а также задачи, которые предстоит решить в будущем.

**Ключевые слова:** стиль, лексический признак, стилистический признак, разговорная речь, монолог, диалог.

**Annotation:** The article discusses the specific, lexical, stylistic features of the speech style, the syntax of this speech, the specific research work on the lexicon of speech, and the tasks to be performed in the future.

**Keywords:** style, lexical feature, stylistic feature, colloquial speech, monologue, dialogue.

So‘zlashuv uslubi o‘ziga xos, leksik, stilistik xususiyatlarga egadir. O‘zbek tilshunosligida ushbu leksik guruhlar yuzasdan hali ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilishi lozim. O‘zbek tilshunosligida so‘zlashuv nutqi sintaksisi, so‘zlashuv nutqi leksikasi borasida maxsus ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Ushbu ishlarda so‘zlashuv nutqi guruhlarini tug‘diruvchi omillar, so‘zlashuv nutqi va adabiy til so‘zlashuv nutqi sintaksisi mulohazalariga duch kelamiz. Xolbuki, keltirilgan belgilar, so‘z guruhlarining tug‘ilishi va ishlatilishi so‘zlashuv

uslubini nutqining soʻzlashuv nutqi bilan aloqadadir. Bizning fikrimizcha, til lugʻat sostavidagi bir qator leksik guruhlar soʻzlashuv nutqining soʻzlashuv nutqining tabiati bilan bogʻliq holda oʻrganilishi kerak. Soʻzlashuv nutqini funksional uslublarga munosabatini tadqiq etgan f.f.d. E. Begmatov, B.Oʻrinboyevlar bu borada tilshunoslikda bayon etilgan mulohazalarni tahlil qilib, quyidagi xulosaga keldilar:

1. Soʻzlashuv nutqi – tilning uslubiy koʻrinishlaridan biri.
2. Soʻzlashuv nutqi – adabiy tilning ogʻzaki shakllaridan biri.
3. Soʻzlashuv nutqi – tilning funksional koʻrinishlaridan biri.
4. Soʻzlashuv nutqi – kundalik turmush nutqi va boshqalar.

Soʻzlashuv nutqi leksikasini tadqiqot etgan M. Tursunpoʻlatov soʻzlashuv nutqi leksikasini xarakterlovchi soʻz guruhlariga quyidagilarni kiritgan:

- Erkalov-kichraytiruv soʻzlari;
- Koʻchma maʼnoli soʻzlar;
- Soʻzlashuv nutqiga xos dialektal soʻzlar;
- Soʻzlashuv nutqiga xos maxsus kasb-korga oid soʻzlar;
- Soʻzlashuv nutqiga xos jargonlar;
- Soʻzlashuv nutqiga xos tabu va evfemizmlar;
- Soʻzlashuv nutqiga xoslangan taqlid va takroriy soʻzlar va boshqalar.[2.10]

Biz oʻzbek, rus tilshunosligida turkologiyada bu borada bayon etilgan mulohazalarga asoslangan holda soʻzlashuv nutqining asosiy belgilariga quyidagilarni kiritdik:

- Dialogik nutq;
- Norasmiy;
- Yuzma-yuz nutq;
- Betakalluf nutq;
- Situativ nutq va boshqalar.

So‘zlashuv nutqi uchun xos bo‘lgan yetakchi nutqiy formalar biri dialogdir. Dialog so‘zlashuv nutqining asosiy ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, nutqiy aloqalarning tabiiy formalaridan sanaladi.

Dialogik nutq birdan ortiq shaxslarning, ya’ni ikki shaxsning erkin so‘zlashuv suhbatida quriladi. Dialogning asosiy xususiyatlaridan biri bir-biri bilan almashinib turuvchi realikalarning umumiy zanjiriga asoslanadi. Dialogda bitta suhbatdoshning gapi tugashi bilan ikkinchisining gapi boshlanadi.

So‘zlashuv nutqida monologik nutq ham mavjud. Ammo monologik nutq so‘zlashuv nutqi uchun asosiy belgilovchi nutq bo‘la olmaydi. Buning boisi shundaki, so‘zlashuv nutqi birdan ortiq shaxslarning ishtirokida yuzaga keladi.

Tilshunos B. O‘rinboyev o‘zbek tili so‘zlashuv nutqi sintaksisiga bag‘ishlangan ishlarida dialogik nutqni o‘rganishni ikki aspektini belgilaydi: “Birinchidan, so‘zlashuv nutqining asosiy formalaridan biri sifatida lingvistik planda o‘rganilsa, ikkinchidan, badiiylikni oshiruvchi dramatic vositalardan biri sifatida, ya’ni badiiy asar tili sifatida o‘rganiladi”.

Tilshunos A. Hazratqulov, A. Boboyeva, E. Shodmonovlar dialogic nutq va uning xususiyatlarini o‘zbek tili sintaksisiga xos xususiyatlaridan biri sifatida o‘rgangan bo‘lsalar, tilshunos S. Xoldorova dialogic nutqni o‘ziga xos nutqiy belgi sifatida o‘rgangan.

Demak, yuqorida bayon etilganlarni jamlayidgan bo‘lsak, so‘zlashuv dialogic formada badiiy asarlarda, o‘zaro so‘zlashuvlarda o‘z ifodasini topadi.

Masalan,

- Nega sigiringni mini bolding?
- Minib olmasam qochib ketadi-da.
- Bahonada kataysa qilib kelaman.
- Yaxshi, yaxshi Makron nechanchi sinfda o‘qiysan?
- Oltinchida.
- Uy vazifalarini bajarib qo‘yganmisan?
- Bizga uy vazifalari berilmaydi.
- Iye, nega?

- Muallimlarning o‘zlari ishlab, o‘zlari baho qo‘yishadi.
- Yaxshi ekan. Ayt-chi, mana bu katta yo‘l qayoqqa olib boradi?
- Shaharga.
- Shaharning nomi nima?

**Faydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘rinboyev B., Begmatov E. “O‘zbek so‘zlashuv nutqi sintaksisi masalalari”, S. 1973. 108- bet.
2. Hazratqulov A. “Диалогический речь сов. узбек. литер. языка”. S. 1966. 225